



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)



Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-88-07


Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- iyul oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida shahar korxonalarini tomonidan 82,9 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (79,8 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 66,2 trln.so'mni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 8,4% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 10,8% ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 11,5 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 22,8 % ga o'sish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,1 trln soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,6 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oyida, % da)




Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft




Chaqiq tosh



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar - iyul	2024-yil yanvar - iyul	Farqi +/-
Neft, ming t.	392,5	364,9	-27,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	19 159,4	18 635,9	-523,5
Gaz kondensati, ming t.	385,5	412,0	26,5
Chaqiq tosh ming t.	290,0	136,9	-153,1

Ishlab chiqaradigan sanoat




2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,2 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(2024- yil yanvar-iyul oyi% da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,2 % ni (2023-yilning yanvar-iyul – oyida – (4,4%), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,1 % (23,8%), o'rta-quyi texnologiyali – 34,4 % (31,8%) va quyi texnologiyalisi – 40,3 % (40,1%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,9 % (2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,1 % (2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 18,4 % (2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % (2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,6 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4594,4 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (56,8 % ga oshgan), 21 723,8 tonna paxatadan yigirilgan ip (9,2 % ga oshgan), 969,2 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (2,1 martaga oshgan) va hamda 21 904,0 tonna Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar (43,1 %) ishlab chiqarilishi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar



Margarin va yormalar




Yumshoq bug'doy va spelta uni



Pivo




Aroq




Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- iyul	2024-yil yanvar- iyul	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna.	73,8	35,2	-38,6
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	20,0	21,8	1,8
Margarin va yormalar tonna.	2305,4	0	2305,4
Pivo – mln litr	58.3	64.2	5.9
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	471.7	268. 3	-203. 4
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	943,4	2 042,4	1 099,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.	9 457,0	9 065,1	-391,9

Metallurgiya sanoati

(2024-yil yanvar-iyul oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oyida metallurgiya sanoati ulushi 18,4% ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 13,3% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,7% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 110,3 va ishlab chiqarish hajmi 12 157,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


(yanvar-iyul oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7% ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,3% ga oshgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3238,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-iyul oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4% ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,4 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,2% ni va ishlab chiqarish hajmi 8551,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oyida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4% ni, uning fizik hajm indeksi esa 4,2% ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,2% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,2% ni va ishlab chiqarish hajmi 6 800,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,5% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 98,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-iyul oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,6% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,4% ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 2 986,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oyida)



FHI
% da



2023-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5% ni, fizik hajm indeksi esa 108,8% ni tashkil etgan bo'lsa,


2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 114,6% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 466,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-iyul oyida)


2023-yilning yanvar-iyul oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 142,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5% ni, fizik hajm indeksi 5,5% ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2109,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-iyul oyida)



2023-yilning yanvar-iyul oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 40,6% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3% ni, fizik hajm indeksi 7,1% ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 264,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-iyul oyida)



2023-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 9,5% ga kamaygan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9% ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 123,7% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 3256,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar-iyul oyida)

2023-yilning yanvar-iyul oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 109,3% ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6% ni, fizik hajm indeksi 112,6% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 955,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-iyul oyida

trln.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6% ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-iyul oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,0% ga oshgani kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oyida, % da)

2023- y.



2024- y.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2 274,2	2 027,3	-246,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6 480,1	5 684,7	-795,4
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	535 ,5	736,8	201,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar-iyul oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-iyul oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	104,7	213,5	108,8
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	173,4	143,9	-29,5
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	193,0	355,0	162,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 65,8% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,0 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 84,0 foizga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonolari**
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,0 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-iyul oyida Toshkent shahrida 873 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16